

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/4 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING HUQUQIY ASOSLARI YARATILISHI	10-16
<i>Atamuratova Dilafroz</i> TURKISTON VAQTLI MATBUOTI TARIXI: XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI	17-22
<i>Abdushukurova Iqbol</i> TARIXIY KVESTLARNI TASHKIL QILISH USULLARI	23-27
<i>Redjapov Doniyor</i> JANUBIY OROLBO'YI AHOLISI HARBIY SAN'ATINING TARIXIY ILDIZLARI XUSUSIDA	28-31
<i>Sultanov Samandar</i> QUYI ZARAFSHON VODIYSI GEOGRAFIK XUSUSIYATI: PALEOEKOLOGIYASI JARAYONLARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	32-35
<i>Matyakubov G'ayrat</i> XORAZM VOHASIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY VA ETNIK-MADANIY MUNOSABATLAR RIVOJLANISHIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR (XIII-XV ASRLAR).....	36-39
<i>Eshkuvatov Muhammad Keldiyor o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO BOZORLARI (XIX ASR YEVROPALIK SAYYOHLAR NIGOHIDA)	40-45
<i>G'aniyev Mirjalol</i> QADIMGI TURKLARDA IJTIMOIIY HAYOT	46-51

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullaev Altinbek</i> KORXONALARDA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRARISH LOYIHASI BOSH BYUDJETINING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52-66
<i>Latipov Ashur Ali, Umarova Muzira</i> INVESTITSIYA STRATEGIYASI VA UNING MENEJMENTDAGI O'RNI	67-71
<i>Rustamova Sayyora</i> STRATEGIK BOSHQARUV-RAQOBAT USTUNLIGINING ASOSI	72-77
<i>Буранова Лола, Арипова Азиза</i> РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТА ДОСУДЕБНОГО РАЗРЕШЕНИЯ НАЛОГОВЫХ СПОРОВ	78-87
<i>Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich</i> KORXONALAR BOSHQARUVIDA "YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYLLARINI QO'LLASH AHAMIYATI	88-94

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Saidov Hakim G'afurovich</i> TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA	95-98
<i>Kadirova Ziyoda</i> ILMIY IJODNING IJTIMOIIY, MADANIY VA TARIXIY O'LCAMLARI	99-104

<i>Muzaffarov Navruzxon Baxronovich</i> SHAYX XUDOYDOD VALINING INSON VA OLAM MUNOSABATLARIGA OID QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI	105-108
<i>Raxmatova Mexrinoz Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI YUKSALTIRISH BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING NAZARIY-HUQUQIY VA FALSAFIY ASOSLARI	109-113
<i>Karimova Lola Muzafarovna</i> IJTIMOIY MOBILLIK NAZARIYASIGA YONDASHUVLARNING TARIXIY TAHLILI	114-119
<i>Jumayeva Shahlo Suyunovna</i> JAN POL SARTRNING EKZISTENSIAL FALSAFASIDA ERKINLIK VA YOLG'IZLIK MASALALARINI YORITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	120-125
<i>Djurayev G'olib</i> JAN POL SARTR VA ALBER KAMYU FALSAFIY QARARSHLARIDA ERKINLIK MASALASI	126-130
<i>Rajabov O'tkirjon</i> KONSENSUS MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA "TEMUR TUZUKLARI" ASARINING AHAMIYATI	131-134
<i>Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi</i> GENDER ZO'RAVONLIGIGA QARSHI KURASH CHORALARI	135-139
<i>Xudoykulov Azamat, Beshimova Aziza</i> MA'NAVIY BARKAMOL INSON TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI	140-144

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Abduganiyeva Djamila Rustamovna</i> MACHINE TRANSLATION POST-EDITING THROUGH A HERMENEUTIC LENS	145-151
<i>Murtazayeva Xadicha</i> INGLIZ VA O'ZBEK TIBBIY TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	152-155
<i>Несунбаева Саодатхан</i> ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕДАЧИ АМЕРИКАНСКИХ ДИАЛЕКТИЗМОВ И ПРОСТОРЕЧИЙ В РУССКИХ ПЕРЕВОДАХ "ТОМА СОЙЕРА"	156-160
<i>Axmedjanova Farida, Toirova Shohida</i> XX ASRDA AYOL OBRAZINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI	161-165
<i>O'rinova Shoxsanamxon Nosirjon qizi</i> TAHDID NUTQIY AKTLARI: LINGVOPRAGMATIK TAHLIL VA MENASIV KOMMUNIKATSIYA XUSUSIYATLARI	166-170

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salaev Nodirbek</i> PENITENSIAR TIZIM VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI	171-178
<i>Турсунов Ойбек Батирович</i> МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА ГОСУДАРСТВ РЕГИОНА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	179-184
<i>Xakimova Inobatxon</i> XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING XALQARO HUQUQ DOIRASIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	185-191

<i>Мардонов Амиржон Шерзод угли</i> ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ БАНКОВСКОГО СКОРИНГА	192-202
<i>Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi</i> AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA KONVENSIONAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	203-207
<i>Xolmo'minov Shavkat Jumaevich</i> EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI HUQUQIY TA'MINLASH SOHASIDAGI MUHIM TASHABBUSLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	208-215
<i>Khudayberganova Nigina To'liqin qizi</i> THE NOTION AND CODIFICATION OF THE LAW ON SPECIAL MISSIONS IN INTERNATIONAL LAW	216-221
<i>Саидов Бобур Бахромжонович</i> МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В ВОПРОСАХ ИНТЕРНЕТ-ЮРИСДИКЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ УНИФИКАЦИИ ПРАВОВЫХ НОРМ И ПЕРСПЕКТИВЫ УЧАСТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ГЛОБАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМАХ РЕГУЛИРОВАНИЯ ...	222-229
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASH VA TAHLIL QILISHDA INTERPOL VA EUROPOL TAJIRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN AMALIY AHAMIYATI	230-236
<i>Qilichova Kamola Luqmonxon qizi</i> DINIY MAZMUNDAGI MATERIALLARNI QONUNGA XILOF RAVISHDA TAYYORLASH, SAQLASH, OLIB KIRISH VA TARQATISH JINOYATLARINING YURIDIK TARKIB BELGILARI	237-248
<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> BEZORILIKNING VIRTUAL YUZI: HUQUQIY BAHOLASH VA JAVOBGARLIK MASALALARI	249-256
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Imomov Sirojiddin Ilxomovich</i> SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KASBIY-PEDAGOGIK TA'MINOTINING AHAMIYATI	257-263
<i>Khayrova Madina Rasimovna</i> NATYURMORT JANRIDA ISHLAGAN RASSOMLAR ASARLARINING REKONSTRUKTIV TAHLILI	264-269
<i>Mirkasimova Zilola Alisherovna</i> MAKTABGACHA YOSHDA NUTQ RIVOJI BOSQICHLARI	270-273
<i>Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna</i> AXLOQIY RIVOJLANISH VA NEYROPEDAGOGIK USULLARNING O'ZARO TA'SIRI	274-278
<i>Shakirova Dildora Abdumalikovna</i> NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA ASOSIDA BAHOLASH	279-285
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i> TABIY FANLAR DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTENSIV METODLARNING QO'LLANILISHI	286-290

Baltayeva Ma'mura, Davletova Bikajon

MEDIA LITERACY TEACHING METHODOLOGY 291-294

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SIENCE

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

**THE IMPORTANCE OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL
SUPPORT IN TRAINING SPORTS SPECIALISTS**

Imomov Sirojiddin Ilxomovich

Acting Associate Professor of the Department of Sports Activities

Navoi State University

E-mail: imomov.sirojiddin@mail.ru

Abstract. This article discusses the socio-economic, scientific-technical, and psychological-pedagogical reasons for modernizing the development of professional-pedagogical competent support in the field of physical education and sports. It examines the psychological-pedagogical aspects of didactic support, analyzes contemporary issues related to the development of professional-pedagogical competent support, and provides suggestions and recommendations for its implementation in the educational process.

Keywords: specialist, methodology, physical education, sport, component, technology, provision, modernization, development, personality, didactics, tool, technique, opportunity, content, action, structure, approach.

**SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KASBIY-
PEDAGOGIK TA'MINOTINING AHAMIYATI**

Imomov Sirojiddin Ilxomovich

Sport faoliyati turlari kafedrası dotsent vazifasini bajaruvchisi

Navoiy davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlashning kasbiy-pedagogik kompetentli ta'minotini rivojlantirishni modernizatsiyalashning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik va psixologik-pedagogik sabablari, didaktik ta'minotning psixologik — pedagogik jihatlari, kasbiy-pedagogik kompetentli ta'minotini rivojlantirish bo'yicha zamonaviy muammolarning tahlili, kasbiy-pedagogik kompetentli ta'minotini rivojlantirishni o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalar haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: mutaxassis, texnika, jismoniy tarbiya, sport, komponent, texnologiya, ta'minot, modernizatsiya, rivojlantirish, shaxs, didaktika, vosita, texnika, imkoniyat, mazmun, harakat, tuzilma, yondashuv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N39>

Kirish. Jahonda sodir bo'layotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy o'zgarishlar jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. Xususan, zamonaviy sharoitda kasbiy-pedagogik kompetentlik yondashuvi asosida mutaxassislarni tayyorlash tizimini isloh qilish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bu sport sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, zamonaviy ta'lim usullarini qo'llash va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Sport sohasi mutaxassislarini tayyorlash jarayoni nafaqat jismoniy mashqlar va texnik bilimlarni o'rgatish, balki ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini ham shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Kasbiy-pedagogik ta'minot sport murabbiylari, o'qituvchilari va sport menejerlarini tayyorlashda asosiy omillardan biri bo'lib, ularning nazariy bilimlari, metodik ko'nikmalari va amaliy tajribalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Xususan, zamonaviy sharoitda kasbiy-pedagogik kompetentlik yondashuvi asosida mutaxassislarni tayyorlash tizimini isloh qilish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlash jarayoni, uning didaktik ta'minotini amaliy-faol va madaniyatlilik yo'nalishida kasbiy-pedagogik ta'minotni modernizatsiyalash asosida amalga oshirilmoqda. Bu yondashuv sport sohasidagi mutaxassislarning nafaqat jismoniy va texnik, balki pedagogik va psixologik tayyorgarligini ham rivojlantirishga qaratilgan.

Bu jarayon sport sohasidagi mutaxassislarning nafaqat jismoniy va texnik, balki pedagogik va psixologik tayyorgarligini ham rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Ta'lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarning huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik va moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlashga ehtiyoj sezildi. Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari tatbiq etila boshlandi. Bundan tashqari, jismoniy tarbiya va sport sohasida kasbiy-pedagogik kompetensiyani rivojlantirish ehtiyoji tobora ortib bormoqda.

Kasbiy-pedagogik ta'minot – bu sport sohasi mutaxassislarini o'qitish jarayonida nazariy bilimlar, metodik yondashuvlar va amaliy mashg'ulotlar yordamida ularning kasbiy kompetensiyasini oshirish tizimidir. Bugungi globallashuv sharoitida bu ta'minotni kompetentlik yondashuvi asosida tashkil etish zarurati kuchaymoqda.

Dunyoning yetakchi davlatlarida jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashning zamonaviy modellari ishlab chiqilib, unda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratilmoqda:

Amaliy-faol yondashuv – sport mutaxassislarini tayyorlashda amaliy mashg'ulotlar va innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash;

Madaniyatlilik tamoyili – sport pedagogikasida milliy va xalqaro madaniyatni hisobga olgan holda, universal yondashuvlar asosida ta'lim berish;

Ilmiy innovatsiyalarni tatbiq etish – sport psixologiyasi, biotexnologiya va raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish.

Dunyo miqyosida rivojlanayotgan jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarini tayyorlash jarayonida kasbiy-pedagogik ta'minotning ahamiyati ortib bormoqda.

Bu jarayonning quyidagi jihatlari mavjud:

- murabbiylar va o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish – yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish;

- ilmiy yondashuv va innovatsiyalarni joriy etish – global texnologik o'zgarishlar bilan hamnafas metodlarni ishlab chiqish va sport mashg'ulotlarini modernizatsiya qilish;

- xalqaro tajribadan foydalanish – AQSH, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlardagi ilg'or tajribalarni sport ta'lim tizimiga tatbiq etish;

- murabbiylarning muloqot va pedagogik mahoratini rivojlantirish – sportchilar bilan individual ishlash, ularning jismoniy va psixologik rivojlanishiga yordam berish.

Tadqiqot metodologiyasi. Jahon miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik o'zgarishlarning tezlashishi sport sohasida mutaxassislarni tayyorlash tizimiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan davlatlarda jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarni tayyorlash jarayoni kasbiy-pedagogik ta'minotni modernizatsiyalash, amaliy-faol va madaniy tamoyillarga asoslanib amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston ham xalqaro tajribadan kelib chiqib, sport sohasida innovatsion ta'lim metodlarini joriy etishi zarur. Shu sababli, jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarni tayyorlash tizimida kasbiy-pedagogik ta'minotni takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon va mamlakatimiz amaliyotining jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy-pedagogik kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha zamonaviy muammolarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, fan va ishlab chiqarishning zamon talablariga mos keladigan yangi ta'lim konsepsiyasi talabalarda shaxsiy-kasbiy, ijodiy imkoniyatlarni va integrativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Mavjud "bilimli" konsepsiyaga asoslangan an'anaviy didaktik ta'minot esa bu jihatlarni talabalarda rivojlantirish uchun zarur bo'lgan psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratishda yetarli emas. Ushbu sharoitda kompetentlik ta'lim konsepsiyasiga asoslangan didaktik ta'minotini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

Ushbu dolzarblik quyidagi maqsadlarni belgilashni taqozo etadi, ya'ni:

- jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlashning kasbiy-pedagogik kompetentli ta'minotini rivojlantirishning didaktik ta'minot tizimini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni;
- jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlashning kasbiy-pedagogik kompetentli ta'minotini rivojlantirishga ta'sir etuvchi didaktik ta'minotning asosiy parametrlarini belgilashni.

Oldinga qo'yilgan maqsadlar quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozimligini taqozo etadi, bular:

- jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlashning kasbiy-pedagogik kompetentli ta'minotini rivojlantirishning didaktik ta'minotiga qo'yiladigan asosiy talablarni aniqlash;
- zamon talablariga mos bo'lgan bakalavr bitiruvchisining shaxs modelini rivojlantirish;
- jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlashning kasbiy-pedagogik kompetentli ta'minotini rivojlantirish, didaktik ta'minotini modernizatsiyalash;
- jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlashning kasbiy-pedagogik kompetentli ta'minotini rivojlantirilganligining pedagogik-dagnostikasini takomillashtirish;
- jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid mutaxassislarni tayyorlashning kasbiy-pedagogik kompetentli ta'minotini rivojlantirishning didaktik ta'minotini o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Oliy ta'limni boshqarish sifatiga va didaktikasiga doir muammolarni hamda kompetentli yondashuvni oliy maktabda shakllanishi va

rivojlanishiga qaratilgan tadqiqotlar V.Baydenko[1;], A.Verbitskiy[2;], R.Djurayev[3;] va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Mutaxassislarni tayyorlashning kasbiy-pedagogik kompetentli hamda didaktik ta'minotning psixologik — pedagogik jihatlari, jumladan, mutaxassis modelini umummetodologik yondashuvlar asosida ishlab chiqish va shaxsni ijodiy rivojlantirish kabi muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar R.Sunnatova[4;], V.Shadrikov[5;], N.Egamberdiyeva[6;] va boshqa pedagog olimlarning ishlarida o'z aksini topgan.

Xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarni tayyorlash tizimi chuqur o'rganilganda, uning kasbiy-pedagogik ta'minotini rivojlantirishga yo'naltirilgan asosiy tamoyillar aniqlandi. Ushbu tizimni kompetentlik yondashuvi asosida baholash quyidagi didaktik jihatlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

- o'qitish jarayoni va uning mazmuni talabalar orasida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi;
- pedagogik texnologiyalar talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi;
- o'quv dasturlari moslashuvchan bo'lib, ta'lim jarayonida kasbiy ko'nikma va malakalarning bosqichma-bosqich rivojlanishiga imkoniyat yaratishi;
- kompetentlik darajasini baholash uchun aniq miqdoriy mezonlarning qo'llanilishi;
- ta'lim jarayoni individual yondashuv asosida tashkil qilinishi;
- ta'lim, ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyaning yuqori darajada bo'lishi.

Tahlil va natijalar. Jismoniy tarbiya va sport sohasida kasbiy-pedagogik ta'minot quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

Normativ-huquqiy asos – davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlar, litsenziyalash va attestatsiya tizimi.

Ilmiy-metodik ta'minot – ilg'or pedagogik texnologiyalar, innovatsion o'quv-uslubiy materiallar va zamonaviy trening usullari.

Moddiy-texnik baza – sport inshootlari, laboratoriyalar, trening zallari va multimediya vositalari.

Pedagogik va kasbiy kompetensiyalar – o'qituvchilarning malakasi, zamonaviy metodlarni qo'llash qobiliyati va ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlar.

Integratsiya va hamkorlik – ta'lim, ilm-fan va amaliyotning uzviy bog'liqligi, xorijiy tajribalarni o'rganish va qo'llash, ishlab chiqarish va sport tashkilotlari bilan hamkorlik qilish.

Kasbiy-pedagogik ta'minotning rivojlanishi natijasida ta'lim sifati oshib, jismoniy tarbiya va sport sohasida raqobatbardosh mutaxassislarning yetishtirish imkoniyati kengayadi.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishni modernizatsiyalashning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik va psixologik-pedagogik sabablari quyidagilardan iborat:

Ijtimoiy-iqtisodiy sabablar:

- Globallashuv va internatsionalizatsiya — zamonaviy dunyoda ta'lim jarayonlari globallashib, turli mamlakatlar o'rtasida integratsiya kuchaymoqda. Bu esa pedagoglarning xalqaro standartlarga mos ravishda tayyorlanishini talab etadi.

- Bozor iqtisodiyoti talablari — mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish uchun ta'lim tizimi doimiy ravishda yangilanib, kasbiy kompetentlikni oshirishga yo'naltirilishi lozim.

Ilmiy-texnik sabablar:

- Texnologik taraqqiyot — axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonlariga zamonaviy usullarni joriy etishni taqozo etadi. Bu esa pedagoglarning texnologik kompetentligini oshirishni talab qiladi.

- Innovatsion yondashuvlar – ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar va metodikalar paydo bo'lishi bilan, ularni amaliyotga tatbiq etish uchun pedagoglarning ilmiy salohiyati va yangiliklarni qabul qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik-pedagogik sabablar:

- Ta'lim sifatini oshirish ehtiyoji – o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim berish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun pedagoglarning psixologik-pedagogik bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borish zarur.

- Pedagogik kreativlikni rivojlantirish – ta'lim jarayonida ijodiy yondashuvlarni qo'llash, o'quvchilarning qiziqishini oshirish va samaradorlikni ta'minlash uchun pedagoglarning kreativlik salohiyatini oshirish muhimdir.

Zamonaviy jamiyatda jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Buning sababi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy o'zgarishlar natijasida sport ta'limi tizimida kompetentli kadrlarni tayyorlash zaruratining kuchayishidir. An'anaviy "bilimli" ta'lim konsepsiyasiga asoslangan didaktik ta'minot esa ushbu ehtiyojga to'liq javob bera olmaydi. Shu sababli, sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlash jarayonida kasbiy-pedagogik ta'minotni modernizatsiya qilish dolzarb masalaga aylandi.

Kasbiy-pedagogik ta'minotning ahamiyati shundaki, u ta'lim jarayonining maqsad, mazmun, metod va texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, natijada talabalar nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko'nikma va kompetensiyalarga ham ega bo'ladilar. Shuningdek, zamonaviy baholash tizimlari joriy etilishi sport pedagogikasida natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Mavjud an'anaviy didaktik ta'minotni tizimli tahlil qilish natijasida, sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlash jarayonida talabalarda kompetentlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi muhim omillar aniqlangan. Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'lim modeli zamonaviy talab va ehtiyojlarga to'liq javob bera olmaydi.

Birinchidan, "maqsadli parametrlar" bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, an'anaviy didaktik ta'minot ko'proq nazariy bilimlarni o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lib, amaliy kompetensiyalarni shakllantirish ikkinchi darajali bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda esa, sport sohasi mutaxassislaridan nafaqat bilim, balki mustaqil fikrlash, innovatsion yondashuv va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish talab etilmoqda.

Ikkinchidan, "mazmunli parametrlar" jihatidan olib qaraganda, mavjud ta'lim dasturlari va metodikalari ko'pincha zamonaviy ilmiy-texnikaviy yutuqlarni va innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'z ichiga olmagan. Bu esa talabalar bilimining amaliyot bilan integratsiyalashuvini sekinlashtiradi.

Uchinchidan, "tuzilmaviy parametrlar" bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, an'anaviy didaktik ta'minotda interaktiv ta'lim metodlari, zamonaviy texnologiyalar va individual

yondashuv yetarlicha qo'llanilmaydi. Natijada, talabalar mustaqil va tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish kabi kasbiy kompetensiyalarni yetarlicha rivojlantira olmaydilar.

Shunday qilib, an'anaviy didaktik ta'minotni modernizatsiya qilish, uni sport mutaxassislarini tayyorlash jarayoniga moslashtirish uchun tizimli yondashuv zarur. Bu jarayonda ta'lim maqsadlarini qayta ko'rib chiqish, mazmunni zamonaviy talablar asosida boyitish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlashda kasbiy-pedagogik ta'minotning ahamiyati beqiyos bo'lib, bu jarayon malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishiga hissa qo'shuvchi mutaxassislarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda sport ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta'minlash va jismoniy tarbiya pedagogikasini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, sport mutaxassislarini tayyorlashda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish, individual yondashuvlarni joriy etish hamda psixologik-pedagogik jihatdan tayyorgarlik darajasini oshirish muhim ahamiyatga ega. Jismoniy madaniyatni rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish sport pedagogikasining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Shu tarzda, sport sohasi mutaxassislarini tayyorlashda kasbiy-pedagogik ta'minotni takomillashtirish nafaqat yuqori malakali kadrlar tayyorlashga, balki jamiyatda sport va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga, yoshlarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishga ham yordam beradi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarini tayyorlash jarayonida kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar qo'llanilgan bo'lsa-da, mavjud tizim hali ham an'anaviy "bilimli" yondashuvga asoslanib, ushbu yondashuv quyidagi didaktik xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

- bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga yo'naltirilgan holda, tayyor bilimlar tizimini o'zlashtirish tamoyili ustunlik qiladi;

- o'quv dasturlari asosan reproduktiv mazmunga ega bo'lib, talabalar mustaqil tahlil qilish va innovatsion fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlariga cheklangan;

- o'qitish jarayoni fanlarga markazlashgan tarzda tashkil etilib, ekstensiv pedagogik texnologiyalar ustunlik qilmoqda;

- kasbiy tayyorgarlik darajasi asosan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar orqali baholanadi.

Bunday yondashuvni rivojlantirish uchun interfaol va innovatsion ta'lim texnologiyalarini keng qo'llash, nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish hamda kasbiy kompetensiyalarni real sharoitlarda baholash tizimini yaxshilash zarur.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Байденко В.И. Компетентностный подход к проектированию государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования (методологические и методические вопросы).-М.: 2005. -114 С.
2. Вербицкий А.А. Компетентностный подход и теория контекстного обучения.- М.: Изд. ИЦПКПС, 2004. - 84 С.
3. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. –T.: Voris-Nashriyot, 2012.-167 b.

4. Суннатова Р.И. Индивидуальнотипологические особенности мыслительной деятельности. Автореф. дис. ... док.псих.наук. -Т., 2001.-41 С.
5. Шадриков В.Д. Новая модель специалиста: инновационная подготовка и компетентностный подход // Высшее образование сегодня. -М., 2004. -№ 8. -С. 26-31.
6. Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida): Dis. ... ped. fan. d-ri. – T., 2010. -332 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).